

O'QUVCHILARNING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK RIVOJLANGANLIK DARAJASINI ANIQLASHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK METODLARI

Abduqaxorova Muslimaxon Mirzabahrom qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Magistratura bo'limi

Tasviriy san'at yo'nalishi 1-bosqich magistranti

abduqahhorovamuslima11@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning individual-psixologik rivojlanganlik darajasini aniqlashda qo'llaniladigan psixologik-pedagogik metodlarning mazmuni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda o'quvchilarning bilish jarayonlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, temperament xususiyatlari, motivatsiyasi hamda shaxsiy rivojlanish darajasini o'rganishga xizmat qiluvchi diagnostik usullar yoritilgan. Shuningdek, kuzatish, suhbat, so'rovnoma, test, pedagogik eksperiment va boshqa diagnostik metodlarning ta'lim jarayonidagi o'rni hamda ularning o'quvchilarni har tomonlama baholashdagi imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. O'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash asosida ta'limni individuallashtirish va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Individual-psixologik rivojlanganlik, psixologik-pedagogik metodlar, pedagogik diagnostika, o'quvchi shaxsi, bilish jarayonlari, qobiliyat, motivatsiya, temperament, kuzatish metodi, suhbat metodi, testlash, so'rovnoma, ta'lim samaradorligi, individual yondashuv, shaxs rivojlanishi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarning individual-psixologik rivojlanganlik darajasini aniqlash masalasi pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki har bir o'quvchi o'zining psixologik xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, motivatsiyasi va bilish faoliyati bilan boshqalardan farq qiladi. Mazkur xususiyatlarni o'z vaqtida va to'g'ri aniqlash ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarning individual-psixologik rivojlanganlik darajasi ularning aqliy faoliyati, hissiy-irodaviy sifatleri, kommunikativ ko'nikmalari, mustaqil fikrlash qobiliyati hamda ijtimoiy moslashuv darajasida namoyon bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash va baholashda psixologik-pedagogik metodlar muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Kuzatish, suhbat, anketa, test, faoliyat mahsullarini tahlil qilish, pedagogik eksperiment kabi metodlar orqali o'quvchilarning individual rivojlanish xususiyatlari haqida ishonchli ma'lumotlar olish mumkin. Ta'lim jarayonida psixologik-pedagogik diagnostika natijalaridan samarali foydalanish o'qituvchilarga o'quvchilarning imkoniyatlarini chuqurroq anglash, ta'lim mazmuni va metodlarini individual xususiyatlarga moslashtirish hamda shaxsga

yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish, qobiliyatlarini rivojlantirish va ta'lim sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Shu bois o'quvchilarning individual-psixologik rivojlanganlik darajasini aniqlashning psixologik-pedagogik metodlarini o'rganish, ularning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish hamda ta'lim amaliyotida qo'llash masalalari ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning individual-psixologik rivojlanganlik darajasini aniqlashning psixologik-pedagogik metodlari: kuzatish, mashqlar, og'zaki so'rov, suhbat, anketa, test, yozma (matnli) mustaqil ish, o'quvchilarni tasviriy - ijodiy mahsullarini o'rganish, pedagogik tajriba sinovi eksperimentidan foydalaniladi.

Kuzatish — o'quvchining individual-psixologik rivojlanganligini aniqlashda kuzatish metodi muhimdir. Psixik hodisalar, ya'ni tabiiy sharoitda, o'quvchining faoliyatida qanday ko'rinishda voqea bo'lsa, O'sha ko'rinishda kuzatish metodining yordami bilan o'rganiladi. Albatta o'quvchining psixikasini kuzatib bo'lmaydi, faqat uning faoliyati, harakatlari orqali o'quvchining psixologiyasini aniqlashimiz mumkin. Faoliyatda o'quvchining, tasviriy san'at ishlarida bajargan ishlari, rasmlari, lepka, applikatsiyalari orqali kuzatamiz. O'quvchining tasviriy san'at faniga iqtidori, layoqati, malakasi hamda psixologik xususiyatlari xotira, diqqat, idrok kabi xususiyatlarini kuzatamiz. Masalan, uning xotirasini aniqlashimizda turli vositalardan foydalanishimiz mumkin. Reproduktsiya yoki ranglarni eslab qolish mashqlari. Unda oldindan tayyorlangan turli xil reproduktsiyalar va hokazolarni o'quvchiga bir marta ko'rsatib keyin uni yopib, o'quvchidan qanday reproduktsiyalarni ko'rganligini eslash. Ranglarni eslab qolish, unda turli buyum va narsalarning qaysi rangda ekanligini aniqlash va xotirada qoldirishi. Masalan paxta oq, qaldirg'och qora, ola qizil va h.k. O'quvchilarning bilimi va malakalarini aniqlashda shu ranglarni bir-biriga qo'shishini va qaysi rang bilan qo'shilsa ranglar kelib chiqishini kuzatishimiz mumkin.

Shu olib borilayotgan ishlar o'qituvchi kuzatishida aniq bir maqsad qo'yib, o'quvchilarning qiziqishini o'rganish va so'ndirmaslikka, qiziqishiga qarab ishlar olib borish, har bir o'quvchiga daftar tutishi (unda bolaning qiziqishi, qobiliyati, keyinchalik nimalarga e'tibor berilishi, kamchilik va ularni bartaraf etish yo'llari yozib boriladi) va hokazolarga e'tibor berishi lozim.

Mashqlar- Tashxisning bu turida o'quvchilarning qalam, mo'yqalam, stek va boshqa ish qurollari, badiiy materiallar bilan ishlash malakalari va ko'nikmalarining darajasi aniqlanadi. Bu ish ko'proq naturaga qarab rasm ishlash va kompozitsiya mashg'ulotlari bilan bogliq bo'ladi

Og'zaki so'rov. Tashxisning bu turida o'quvchilarning tasviriy amaliy, me'morchilik san'atlaridan nazariy bilimlari (kompozitsiya, yorug'soya, rangshunoslik, perspektiva), maxsus atamalar, rassom va haykaltaroshlarning ishlatadigan asosiy ish qurollari va materiallari, tasviriy san'atning tur va janrlari, mashhur rassomlar va ularning asarlari haqidagi tushunchalari hajmi aniqlanadi. Og'zaki so'rov frontal va individual tarzda amalga oshiriladi hamda u o'quvchilarni tez-tez nazorat qilish imkonini beradi.

Savol-javob - metodi o'quvchining psixik hodisalarining asosan ichki, sub'ektiv tomonini tekshirish uchun qo'llaniladi. Bu metodda tadqiqotlar taxminan quyidagicha o'tkaziladi. O'qituvchi o'quvchining individual-psixologik rivojlanganligini suhbat orqali tasviriy san'at darslarida olib borishi mumkin. Savollar ko'proq ularning qiziqishi, didi, moyilligi haqida oldindan belgilab olinib, savollarni o'zgartirish, to'ldirish mumkin. O'qituvchi darsdan keyin har bir o'quvchiga, uning daftariga shu o'quvchi haqidagi ma'lumotlarni yozib qo'yadi. Suhbat metodining afzalligi shuki, o'quvchilarning estetik didi yanada tarbiyalanadi, dunyoqarashi shakllanadi, bilimi oshadi, hunarning sir-asrorlarini idrok qilishda nazariy bilimlarga ega bo'ladi.

Anketa — bu metodda o'quvchilarga bir qator savollar berilib, ulardan yozma ravishda javoblar olinadi. Afzalligi tez va oson, lekin o'quvchilar bilan muloqotda bo'la olmaslik. Anketa metodini boshlang'ich sinflarda qo'llab bo'lmaydi, chunki ular javoblarni yozma ravishda aniq bera olmaydilar.

Test — Nazoratning bu turida o'quvchilar tomonidan tasviriy san'atning nazariy asoslari, maxsus atamalar, rassom, haykaltaroshlar va ularning asarlari, ish qurollari va ishlatadigan materiallari, bolalar tomonidan rang nomlarini o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Testlardan foydalanish tasviriy san'at darslarining barcha turlari (naturadan rasm ishlash, kompozitsiya, san'atshunoslik asoslari) bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Yozma (matnli) mustaqil ish. Mustaqil ishning bu turida o'quvchilar tomonidan olingan bilimlarning qanchalik o'zlashtirilganligi aniqlanadi. U bevosita tasviriy san'atning san'atshunoslik asoslari kursi bilan bog'liq bo'lib, unda o'quvchilar chaynvord, krossvordlar yechadilar, viktorina savollariga javob qaytaradilar, tasviriy san'atdan insho va referatlar yozadilar.

O'quvchilarning tasviriy ijodiy maxsulini o'rganish. O'quvchilarning badiiy tafakkuri va qobiliyatlari, rivojlanish darajalari, psixik holatini, individual xususiyatini o'rganishda, uning ijodiy maxsullari orqali, ya'ni uning chizmalari, rasmlari, yasayotgan buyumlari, albomlari va hokazolar orqali aniqlash mumkin. Bunda o'quvchining ijodiy mahsuligina emas, balki shu mahsulni yaratishidagi jarayonni va qay yo'l bilan erishganligini ham o'rganish mumkin. Flamdagi ijodiy mahsulning mazmuni, g'oyasi, syujeti, ma'nosiga e'tibor beriladi.⁴⁶

Pedagogik eksperiment. Pedagogik psixologiyada keng ko'lamda pedagogik eksperiment qo'llaniladi. Bu tabiiy sharoitda o'tkazildigan eksperiment bo'lib, unda ta'limiy va tarbiyaviy tomonlar hisobga olinadi. Eksperiment orqali tadqiqotchi o'quvchilarga u yoki bu metodning qulayligini o'rganib chiqadi.

O'quvchilarning individual-psixologik rivojlanganlik darajasini aniqlash ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning muhim shartlaridan biridir. Psixologik-pedagogik metodlar yordamida o'quvchilarning bilish faoliyati, qobiliyatlari, qiziqishlari, motivatsiyasi, temperament xususiyatlari hamda shaxsiy rivojlanish darajasi haqida ishonchli ma'lumotlar olish mumkin. Bunday ma'lumotlar o'qituvchiga har bir o'quvchining individual

⁴⁶ Nishanova Z., Qurbonova Z., Abdiev S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. Tafakkur-Bo'stom 2011.-304 b.

imkoniyatlarini chuqurroq o'rganish va ta'lim jarayonini shunga mos ravishda tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kuzatish, suhbat, so'rovnoma, testlash, faoliyat natijalarini tahlil qilish va pedagogik eksperiment kabi metodlardan kompleks foydalanish o'quvchilarning psixologik rivojlanish darajasini aniq baholashga yordam beradi. Mazkur metodlar orqali o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, ularni rivojlantirishga qaratilgan individual va differensial yondashuvni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Shuningdek, psixologik-pedagogik diagnostika natijalari ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini kuchaytirish, ularning qobiliyat va iste'dodlarini rivojlantirish hamda shaxs sifatida kamol topishiga ko'maklashadi. O'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni ularning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning individual-psixologik rivojlanganlik darajasini aniqlashning psixologik-pedagogik metodlari zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu metodlardan ilmiy asoslangan va tizimli ravishda foydalanish o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov R. Tabaqalishtirilgan ta'lim. Muammo va echim. // Ma'rifat gazetasi. 2003. 15 noyabr.-8-9 b.
2. Hasanov R. Tasviriy san'at asoslari. -T.: G'ofur G'ulom. 2009.204b.
3. Hasanov R. O'quvchilarnitasviriy san'atdan bilim va malakalarini o'zlashtirilishining nazorati. —T.: TDPU. 2008. -30 b.
4. Hasanov R. Umumiy O'rta ta'lim maktablarida darajali tabaqalashtirib o'qitish kontsepsiyasi. (Loyiha) // Ma'rifat gazetasi. 2005. 26-yanvar. —8-9b.
5. Hasanov R., Xayrov R. O'quvchi qobiliyati, tashxis va tabaqalashtirilgan ta'lim. // Maktab va hayot.- 2010. -N27-8 (75-76)